


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHITIDA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQI MADANIYATIDA TABIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG'LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O'TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G'OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o'g'li XORAZM VOHASI VA G'ARBIY SO'G'D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR'ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O'RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA'S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O'ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O'ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Bekimbetov Bahodir Mirzabaeovich-
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
bahadyrbekimbetov35@gmail.com

YANGI O'ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O'ZGARISHI VA UNING NATIJALARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670177>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Orol dengizining qurishi natijasida kelib chiqqan ekologik fojia haqida bo'lib, uning dunyo miqyosida ekologik muammolarning oldini olish bo'yicha amalsha oshirilgan chora tadbirlar haqida bayon etilgan. Shunigdek, Orol fojiasi oqibatlarin bartaraf etishda davlat siyosati va uning natijalari haqida misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Orol tengizi, Orolqum cho'li, ekologik muammo, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi, Trast fondi, Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi

Бекимбетов Бахадыр Мырзабаевич-
Институт сельского хозяйства и
агротехнологий Каракалпакстана
кандидат исторических наук, доцент

КОРЕННОЕ ИЗМЕНЕНИЕ ПОДХОДА В РЕШЕНИИ АРАЛЬСКОЙ КАТАСТРОФЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО РЕЗУЛЬТАТЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается экологическая катастрофа, вызванная высыханием Аральского моря, и описываются меры, принятые для предотвращения экологических проблем во всем мире. Кроме того, приводятся примеры государственной политики в предотвращение последствий Аральской катастрофы и ее результатов.

Ключевые слова: Аральское море, пустыня Аралкум, экологическая проблема, 72-я сессия Генеральной Ассамблеи ООН, Трастовый фонд, Зона экологических инноваций и технологий

Bekimbetov Bakhadir Mirzabayevich-
Institute of Agriculture and
agrotechnologies of Karakalpakstan
Candidate of Historical Sciences,
Associate Professor

THE FUNDAMENTAL CHANGE OF APPROACH IN ADDRESSING THE ARAL DISASTER IN NEW UZBEKISTAN AND ITS RESULTS

ABSTRACT

This article discusses the ecological disaster caused by the drying up of the Aral Sea and describes the measures taken to prevent environmental problems worldwide. In addition, examples of state policy in preventing the consequences of the Aral Sea disaster and its consequences are given.

Keywords: Aral Sea, Aralkum Desert, environmental problem, 72nd session of the UN General Assembly, Trust Fund, Environmental Innovation and Technology Zone

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Orol dengizi — Qozogʻiston va Oʻzbekiston chegarasida, Oʻrta Osiyo choʻllarining markazida joylashgan sobiq oqmas shoʻr koʻl. 1960-yilgacha u dunyodagi toʻrtinchi yirik koʻl boʻlgan, biroq keyinchalik uning sathi tez surʼatlarda pasaya boshladi. Bunga asosiy sabablardan biri — sugʻorish uchun daryolar, yaʼni Amudaryo va Sirdaryodan ortiqcha suv olinishi boʻldi. Natijada, 40 yil ichida Orolning maydoni deyarli ikki baravar qisqardi, suv sathi 18 metrga tushdi, hajmi besh baravar kamaydi, shoʻrlanish darajasi oshdi, va baliqlar butunlay yoʻqoldi.

Orol dengizining qurishi hozirgi zamonning eng dahshatli ekologik halokatlaridan biri hisoblanadi. Bu holat inson faoliyatining atrof-muhitga taʼsiri muammosini keskinlashtirdi. Orol fojiasi jahon hamjamiyati eʼtiborini yer kurrasining tabiiy resurslari va ekotizimlarini saqlab qolish boʻyicha birgalikdagi saʼy-harakatlar zarurligiga qaratdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil sentyabr oyida BMTning 72-sessiyasida soʻzlagan nutqida, Orol dengizining qurishi natijasida Orolboʻyi hududi “ekologik fojia epitsentriga” aylanganini taʼkidladi. U muammoni birgalikda, jumladan, ikki million gektar maydonda yangi landshaftlar, oʻrmonzorlar va tuproq qoplamini shakllantirish orqali hal qilishni taklif qildi. Oʻzbekiston Prezidentining mazkur taklifi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan maʼqullandi va rezolyutsiya qabul qilindi. Natijada Orolboʻyi hududi “Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi” deb eʼlon qilindi [2].

METODLAR VA OʻRGANILISH DARAJASI

Ushbu maqolada tarixiy-solishtirma, mintaqaviy tahlil, statistik va hujjatli manbalarga asoslangan metodologik yondashuv qoʻllanilgan. Ekologik muammo boʻlmish Orol inqirozi boʻyicha ilmiy tadqiqotlar va davlat siyosati tahlili asosiy metod sifatida tanlangan. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar maʼlumotlari va ekologik xavfsizlikka oid strategiyalar tahlili ham qamrab olinadi.

Orol fojiasining oʻrganilish darajasi nisbatan keng boʻlib, u ilmiy dissertatsiyalar, maqolalar va xalqaro hisobotlarda atroflicha yoritilgan. Masalan, S.Davletov oʻzining doktorlik dissertatsiyasi asosida XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridagi ekologik vaziyat hamda ijtimoiy muammolarni tahlil qilib, bu masalaning tarixiy ildizlari va ijtimoiy oqibatlarini ochib bergan [4]. B. N. Omonov esa Orolboʻyi mintaqasidagi ekologik siyosatning ijtimoiy mohiyatini falsafiy nuqtai nazardan yoritgan [5]. A. Sanginovning maqolasida aholining ekologik ongini shakllantirish masalasi, uni oshirish yoʻllari va ekologik madaniyatni kuchaytirish borasidagi choralar muhim oʻrin egallaydi [6].

A. Kaypnazarov esa Orolboʻyi ekologik muammolarini tarixiy jarayonlar bilan bogʻliq holda oʻrganib, hududiy salbiy oʻzgarishlar va ularning oqibatlarini tahlil qilgan [7]. I. Nurmetov tomonidan esa Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro ekologik hamkorlikdagi aloqalari tarixiy-geosiyosiy nuqtai nazardan oʻrganilgan boʻlib, unda Orolboʻyi mintaqasining xalqaro darajadagi muammosi sifatida koʻrilgan holatlari aks ettirilgan [8].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan Orolboʻyi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb eʼlon qilish toʻgʻrisidagi maxsus rezolyutsiya

bir ovozdan qabul qilindi [9]. Ushbu rezolyutsiyaning qabul qilinishi O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish g'oyasi ilk bor Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 24-avgust kuni Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi sammitida ilgari surilgan edi [1]. 2019-yil 25-oktyabrda Nukus shahrida BMT shafeligida o'tkazilgan "Orolbo'yi -ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi" mavzusidagi yuqori darajadagi xalqaro konferensiyada bu tashabbus yetakchi ekspertlar tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi.

Mazkur rezolyutsiyaning qabul qilinishi Orolbo'yi mintaqasini ekologik inqiroz hududidan innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish zonasi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa mintaqaviy va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini faollashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Xususan, energiya va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini kompleks ravishda qo'llash, ekoturizmni rivojlantirish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Bu holat shundan dalolat beradiki, Yangi O'zbekistonda Orol fojiasiga yondashuv mafkurasi tubdan o'zgardi: ekologik inqirozga faqat e'tibor qaratish emas, balki uni barham topish mexanizmlarini yaratishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Orol inqirozi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan 250 dan ortiq loyihani amalga oshirdi. 2017–2021-yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturi doirasida umumiy qiymati qariyb 8,5 trillion so'mlik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, 2020–2023-yillarda Qoraqalpog'istonni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Mazkur dasturga kiritilgan 1359 ta loyihadan 750 ga yaqini amalga oshirilib, 4500 dan ortiq ish o'rni yaratildi [10].

2018-yil oxirida BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p sheriklik asosidagi Trast fondi tashkil etildi. Jamg'armaning asosiy maqsadi - Orolbo'yi mintaqasida aholining hayoti bilan bog'liq dolzarb muammolarni, jumladan, sog'liqni saqlash, iqtisodiy rivojlanish, ekologiya, ijtimoiy himoya va boshqa sohalarni hal qilishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida xalqaro hamjamiyat e'tiborini yana bir bor Orol mintaqasidagi halokatli holatga qaratdi. Trast jamg'armasi orqali quyidagi to'rtta muhim vazifani amalga oshirish belgilandi:

1. Mablag'larni keyinchalik Orolbo'yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirish.
2. Kompleks yondashuvni ta'minlash. Ilgari Orol muammosi BMTning turli institutlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan alohida yondashuvda ko'rib chiqilgan bo'lsa, hozir yagona, tizimli yondashuv shakllanmoqda.
3. Muammolarni takrorlamasdan, ular bo'yicha birgalikda yechim topish uchun integral mexanizm yaratish. "Yong'inni o'chirish" emas, balki mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan siyosiy va moliyaviy sa'y-harakatlarni kuchaytirish.
4. Ajratilayotgan mablag'lar eng samarali tarzda ishlatilishini ta'minlash. Amaldagi loyihalar aholining sog'lig'ini saqlash, ichimlik suvi bilan ta'minlash, ish o'rinlari yaratish va ta'lim sifatini oshirishga bevosita foyda keltirishi kerak.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Orolbo'yi mintaqasiga tashrifi doirasida umumiy qiymati 1,5 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan o'nlab loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bir qator dasturlar e'lon qilindi. Mazkur loyihalar O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, aholining bandligini ta'minlash, shu jumladan muqobil ish o'rinlarini yaratish, sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash kabi ustuvor yo'nalishlardagi sa'y-harakatlarining tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bundan tashqari, ilgari yo'qolib ketgan xo'jalik faoliyatining ayrim turlarini tiklash bo'yicha bosqichma-bosqich dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, baliqchilik sohasini tiklash maqsadida ushbu hududda sun'iy ko'llar barpo etilmoqda. Bu holat, Orol dengizining butun akvatoriyasini

to'liq tiklash imkoni mavjud bo'lmagan taqdirda ham, tabiiy muvozanatni tiklash va inson xo'jalik faoliyatini rivojlantirish nuqtayi nazaridan samarali yechim bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqsadlarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston eng ko'p suv talab qiluvchi ekin - paxta yetishtirish maydonlarini sezilarli darajada qisqartirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda har bir gektar yerga sarflanadigan suv miqdori ikki barobar kamaydi. Bu esa suv resurslarini tejash hamda ularni Orol havzasini qisman tiklashga yo'naltirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, o'rmonzorlar barpo etish ishlari davom etmoqda. Ular Orol dengizi tubining qurigan hududida suv yo'qotilishini muvozanatlashtirishda muhim ekologik bufer sifatida xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Trast fondi doirasida O'zbekiston hukumati, BMT agentliklari va xalqaro donorlar hamjamiyatining sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish orqali Orolbo'yi mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga kompleks yondashuv asosida integratsiyalashgan yordam ko'rsatilib kelinmoqda. Fondning asosiy donorlariga Yevropa Ittifoqi, Finlyandiya, Norvegiya, Koreya Respublikasi va O'zbekiston kiradi.

Trast fondi doirasida 230 million AQSH dollaridan ortiq mablag' to'g'ridan-to'g'ri tushumlar va parallel moliyalashtirish shaklida jalb etilgan. Ushbu mablag'lar hisobidan Orolbo'yi mintaqasida aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash, perinatal yordam sifatini yaxshilash, yoshlarning qishloq xo'jaligidagi innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, umumta'lim maktablarida sanitariya sharoitlarini yaxshilash hamda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan 16 ta loyiha moliyalashtirilgan.

Yana bir muhim tashabbus - 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tashkil etilgan Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi faoliyatidir. Markaz Orolbo'yi hududida suv va yer resurslarini qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish hamda sho'rlanish sharoitida innovatsion texnologiyalar va ilg'or yondashuvlar transferi yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Ayni paytda Shveysariya, Koreya Respublikasi, Xitoy va Tunis kabi davlatlarning ilmiy muassasalari bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, Orolbo'yi mintaqasida muqobil energetika yo'nalishida ham muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021-yilning may oyida Energetika vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda "ACWA Power" kompaniyasi o'rtasida Qoraqalpog'istonda 1500 MVt quvvatga ega shamol elektr stansiyasini barpo etish bo'yicha kelishuv imzolandi. Ushbu loyiha Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik, shuningdek, dunyoning yetakchi shamol elektr stansiyalaridan biri bo'lishi kutilmoqda [3].

Respublikada amalga oshirilayotgan loyihalar natijasida quyidagi muhim yutuqlarga erishildi:

Birinchidan, so'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 40 foizdan 67,1 foizga yetkazildi. 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkichni 85 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Ikkinchidan, 200 milliard so'm mablag' evaziga 25 ta yangi sog'liqni saqlash muassasasi barpo etildi, yana 38 tasi rekonstruksiya qilindi. Shuningdek, 21 ta tibbiyot birlashmasiga jami 66 milliard so'mlik tibbiy asbob-uskunalar yetkazib berildi.

Uchinchidan, to'rt yil davomida 13 ta yangi maktabgacha ta'lim muassasasi qurildi, yana 155 tasi kapital ta'mirdan chiqarildi va rekonstruksiya qilindi. Natijada maktabgacha ta'lim qamrovi 32,2 foizdan 62,1 foizga yetkazildi.

Orol dengizining qurishidan eng ko'p zarar ko'rgan hududlardan biri - Mo'ynoq tumanida amalga oshirilgan ishlarni alohida ta'kidlash lozim. 2019–2021-yillar davomida 1 trillion 485 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlarini o'z ichiga olgan maxsus davlat dasturi amalga oshirildi. Natijada so'nggi ikki yil ichida Mo'ynoqda ko'plab ko'p qavatli turar joy binolari, sanoat korxonalari, ijtimoiy va infratuzilma obyektlari qurildi. Xususan, 100 km uzunlikdagi Qo'ng'iroq–Mo'ynoq suv tarmog'i tortildi. Shuningdek, 30 yillik tanaffusdan so'ng mamlakatning eng shimoliy aeroporti - Mo'ynoq aeroporti qayta ishga tushirildi.

Ekotizimni tiklash nuqtayi nazaridan, Orol dengizining qurigan tubida bugun "Orolqum" nomi bilan ataluvchi yangi sahro shakllandi. Mazkur suv havzasining qurishi bir necha o'n yillar

avval boshlangan bo'lsa-da, uning salbiy oqibatlarini minimallashtirish borasidagi keskin sa'y-harakatlar so'nggi yillarda amalga oshirila boshlandi. Orolning avvalgi qirg'oqlarini to'liq tiklash deyarli imkonsiz bo'lib qolgani sababli, qurigan tubda o'rmonzorlar barpo etish maqsad qilib qo'yildi.

Hukumat tashabbusi bilan 2018-yildan boshlab 1,6 million gektar maydonga cho'l sharoitiga mos maxsus o'simliklar - asosan saksovullar ekildi. Ular havoga ko'tariladigan tuz va changni ushlab qolish orqali atrof-muhitga sezilarli darajada zarar yetkazilishining oldini oladi. Masalan, atigi bitta saksovul daraxti yiliga 4 tonnagacha qum va tuzli zarrachalarni ushlab qolish imkoniga ega. 1 gektar maydondagi saksovul esa yiliga o'rtacha 1158,2 kg karbonat angidridni yutadi va 835,4 kg kislorod ajratadi. Bu o'simliklar atrofida qulay mikroiqlim vujudga keladi, bu esa cho'l hayvonot dunyosining qayta tiklanishiga xizmat qiladi. Natijada, bu hududlarda quyon, tulki, qirg'ovul, yovvoyi cho'chqa kabi hayvonlar qayta paydo bo'la boshladi.

Bundan tashqari, Orolbo'yi mintaqasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar soni va maydoni kengaytirilmoqda. Jumladan, so'nggi ikki yilda Qoraqalpog'istonda 1,4 million gektar maydonda "Janubiy Ustyurt" milliy tabiat bog'i va 280,5 ming gektar maydonda "Sudoche-Akpetki" davlat buyurtma qo'riqxonasi tashkil etildi [12].

Umuman olganda, taraqqiyotning yangi bosqichida O'zbekistonda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish va Orolbo'yi aholisining turmush darajasini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli loyihalar izchil amalga oshirilmoqda. BMTning Orolbo'yi mintaqasidagi tashabbuslari doirasida mahalliy aholi hayotini diversifikatsiya qilish, Qang'liqo'l, Shumanay, Mo'ynoq, Taxtako'pir kabi namunaviy tumanlarda aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiluvchi daromad manbalarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [13].

XULOSA

Orol halokati insoniyatning o'zi sabab bo'lgan ekologik muammolardan biridir. Orol dengizi bilan bog'liq muammolarga jiddiy e'tibor qaratish nafaqat bugungi avlod, balki kelajak avlodlar oldidagi tarixiy, axloqiy va fuqarolik burchimizdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston Orol dengizining qurishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha o'z yondashuvini tubdan qayta ko'rib chiqdi. Bu borada milliy resurslar safarbar etilmoqda, xalqaro moliyaviy va texnik yordam jalb qilinmoqda. Amalga oshirilayotgan loyihalar aniq maqsadli va amaliy xususiyatga ega bo'lib, ular deyarli barcha sohalarni qamrab oladi - kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdan tortib, Orolbo'yi hududida yangi ekotizimlarni shakllantirishgacha.

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida servis sohasini rivojlantirish, qo'shilgan qiymatga ega ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, aholining turmush darajasini oshirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ko'rilmogda. Bularning barchasi mamlakat taraqqiyotining innovatsion modelga o'tishini, respublika iqtisodiy strukturasi tubdan yangilashni taqozo etadi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Шавкат Мирзиёев: умумий келажгимиз – ўзимизнинг кўлимизда. <https://president.uz/uz/lists/view/1967>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.07.2021 yildagi PQ-5202-son "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasi amalga oshirish choralari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5538638?ONDATE=06.01.2024>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 23.11.2018 йилдаги ПҚ-4027-сон «Қорақалпоғистон Республикасида экологик вазиятни яхшилаш ва Оролбўйи худунинг барқорар ривожланишини таъминлаш бўйича маҳаллий ижро ҳокимияти органларининг фоалиятини токомиллаштириш тўғрисида. <https://lex.uz/docs/4163173>
4. Давлетов С. XX аср иккинчи ярми – XXI аср бошида Ўзбекистондаги экологик вазият ва унинг ижтимоий муаммолари. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018.

5. Омонов Б.Н. Ўзбекистоннинг Оролбўйи минтақасидаги экологик сиёсатининг ижтимоий моҳияти. Фалс. фанлари ф. д. дисс. Автореф. Т., 2018.
6. Сангинов А. Аҳоли ўртасида экологик маданиятни тарғиб этиш чоратadbирлари тўғрисида. // Фуқаролик жамияти. 2018. № 1. – Б.11-13.
7. Кайпназаров А. XX аср охири –XXI аср бошида Жанубий Орол бўйидаги экологик вазият ва унинг муаммолари. Тарих фан. Фалс. Докт дисс. автореферати. Нукус, 2021.
8. Нурметов И. Ўзбекистон Республикасининг халқаро экологик ҳамкорлик алоқалари тарихи (1991-2019 йиллар). Тарих фан. Фалс. Докт дисс. автореферати. Урганч, 2022.
9. Генассамблея ООН приняла спецрезолюцию по Приаралью. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/05/18/ara1/>
10. Mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nafaol aholi bo'yicha taqsimlanishi statistik ko'rsatkichlar. <https://www.qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>
11. Президент Қорақалпоғистонда иш ўринларини кўпайтириш бўйича топшириқлар берди. <https://www.president.uz/uz/2134>
12. Тлеуов Н.Р., Хожамуратова Р.Т, Абдуллаев Т.Ж. Глобал иқлим ўзгаришида Орол денгизининг динамик хусусиятлари. “Lesson Press” МЧЖ нашриёти, 2023.
13. Давлетов С., Нурметов И.Оролбўйидаги ижтимоий-экологик вазиятни яхшилашда халқаро ҳамкорлик // Қарақалпақстан тарийхының актуал мәселелери: өтмиши ҳам бүгини 2024 (1), Б. 161-163.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000